



## QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-fevral oylarida

### Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

**282,6 mlrd.so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi

- **2,6 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar  
ulushi -

**69,4 %**

Norasmiy sektor  
ulushi -

**28,0 %**

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyatida jami 282,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 7,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,6 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,4 % yoki 196,2 mlrd. so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 28,0 % yoki 79,1 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **7,3 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **98,9 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar

- hajmi - **196,2 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **108,5 %**

Norasmiy sektor


- hajmi **79,1 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **101,7%**

2019 yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyatida jami 282,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,8 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Joriy yilda jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 7,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 mlrd.so'mga ko'paydi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 196,2 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,6 mlrd.so'mga ko'paydi.


Norasmiy sektor hissasiga esa 79,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 mlrd.so'mga ko'paydi.





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)

■ 2019 yil yanvar-fevral ■ 2018 yil yanvar-fevral




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 200,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 62,1 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 22,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 14,4 mlrd.so'mga kamaygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 59,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 14,9 mlrd.so'mga ko'paygan.

## Yanvar -fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Yanvar -fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 7,0 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % ga ko'paydi.

Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 53,7 % (2,0 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 39,3 % (8,6 % ga kamayish) ni tashkil etdi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 23,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 74,7 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,4 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 1,4 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0.7 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi va 0,9 %ni tashkil etdi. Qolgan 99,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 269,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,4 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 foizga kamaydi.








## QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 81,1 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Chortoq tumanida (15,3 mlrd.so'm yoki 139,5%) - Chortoq tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Mingbuloq tumanida (10,7 mlrd.so'm yoki 132,4%)- Mingbuloq hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

To'raqo'g'on tumanida (26,4 mlrd.so'm yoki 120,0%)- To'raqo'rg'on tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;






## Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil fevral (mlrd,so'm)	2019 yil fevral (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%)da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>231,8</b>	<b>282,6</b>	<b>106,2</b>	<b>100,0</b>
1	Namangan shahar	59,0	73,0	107,8	25,8
2	Mingbuloq tumani	7,1	10,7	132,4	3,8
3	Kosonsoy tumani	19,2	26,4	120,0	9,3
4	Namangan tumani	27,6	29,0	91,7	10,3
5	Norin tumani	9,7	10,8	96,7	3,8
6	Pop tumani	12,5	15,9	110,4	5,6
7	To'raqo'rg'on tumani	16,4	19,1	101,5	6,8
8	Uychi tumani	23,7	32,3	118,6	11,4
9	Uchqo'rg'on tumani	17,9	22,4	109,2	7,9
10	Chortoq tumani	9,5	15,3	139,5	5,4
11	Chust tumani	13,6	13,4	86,2	4,8
12	Yangiqo'rg'on tumani	15,6	14,3	79,7	5,1

## Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan 73,0 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga o'sdi, Mingbuloq tumani 10,7 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,4 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida


26,4 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,0 % ga o'sdi, Pop tumanida 15,9 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga o'sdi, Uychida tumanida 32,3 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,6 % ga o'sdi, Chortoq tumanida 15,3 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,5 % ga o'sdi, Uchqo'rg'on tumanida 22,4 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 25,8 % ini tashkil etdi, Uychi tumanida 11,4 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,3 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 3,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 7,9 % ni, Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 3,8 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2019 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)**



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (0371) 230-84-85**